

Kurbonova Gulmira Usmonovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti maqsadli tayanch doktoranti

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QITISH MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

UO'K: 378.091.3:37.013

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_5_4](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_5_4)

KURBONOVA G.U. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QITISH MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kollaborativ o'qitish muhitini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Kollaborativ, kooperativ va guruhli o'qitish tushunchalarining mazmuniy-funksional farqlari yoritilgan hamda kollaborativ o'qitish muhitining tarkibiy komponentlari tizimlashtirilgan. Shuningdek, kollaborativ muhitni loyihalashning diagnostik, maqsadli, mazmuniy, texnologik, kommunikativ, raqamli va refleksiv ko'nikmalari tavsiflangan. Tadqiqot natijasida kollaborativ o'qitish muhiti bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi ko'p komponentli didaktik tizim sifatida asoslab berilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: kollaborativlik, kollaborativ o'qitish, kooperativ o'qitish, hamkorlik pedagogikasi, kollaborativ o'qitish muhiti, refleksiya.

КУРБОНОВА Г.У. ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПРОЕКТИРОВАНИЯ КОЛЛАБОРАТИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В статье проанализированы теоретико-методологические основы развития у будущих учителей навыков проектирования коллаборативной образовательной среды. Раскрыты содержательно-функциональные различия между понятиями коллаборативного, кооперативного и группового обучения, а также систематизированы структурные компоненты коллаборативной образовательной среды. Кроме того, охарактеризованы диагностические, целевые, содержательные, технологические, коммуникативные, цифровые и рефлексивные навыки, необходимые для проектирования коллаборативной образовательной среды. По результатам исследования коллаборативная образовательная среда обоснована как многокомпонентная дидактическая система, обеспечивающая развитие профессиональных компетенций будущих учителей.

Ключевые слова и понятия: коллаборативность, коллаборативное обучение, кооперативное обучение, педагогика сотрудничества, образовательная среда, рефлексия.

KURBONOVA G.U. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING FUTURE TEACHERS' SKILLS IN DESIGNING A COLLABORATIVE LEARNING ENVIRONMENT

The article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing future teachers' skills in designing a collaborative learning environment. It identifies the conceptual and functional differences among collaborative, cooperative, and group learning, and systematizes the structural components of a collaborative learning environment. In addition, the study characterizes the diagnostic, goal-oriented, content-related, technological, communicative, digital, and reflective skills required for designing a collaborative learning environment. The findings substantiate the collaborative learning environment as a multi-component didactic system that facilitates the development of future teachers' professional competencies.

Key words and concepts: collaboration, collaborative learning, cooperative learning, collaborative learning environment, reflection.

Kirish.

Zamonaviy pedagogik ta'limda bo'lajak o'qituvchini faqat tayyor bilimlarni uzatuvchi mutaxassis sifatida emas, balki ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari, kommunikativ tuzilmasi, raqamli vositalari, baholash mexanizmlari va refleksiv jarayonlarini maqsadli loyihalovchi professional subyekt sifatida tayyorlash masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa, XXI asr ta'limida o'quvchilarning faqat individual bilimga ega bo'lishi yetarli emas; ular birgalikda muammo yecha olish, muloqotga kirishish, mas'uliyatni taqsimlash, umumiy mahsulot yaratish, dalillangan fikr bildirish, o'zaro baholash va refleksiya qilish ko'nikmalarini egallashi zarur.

Respublikamizda so'nggi yillarda pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, oliy pedagogik ta'lim mazmunini maktab amaliyoti bilan integratsiyalash, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-amaliy tayyorgarligini kuchaytirish va ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi "Pedagog maqomi to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida "...ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan jismoniy shaxs pedagogdir", – deya ta'kidlangan¹. Shuningdek, xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha belgilangan islohotlarda pedagog kadrlarni tayyorlashda amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni kuchaytirish, jumladan, "4+2" tartibida oliy ta'lim va maktab amaliyotining integratsiyasini ta'minlash masalalari

alohida belgilangan. 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmonda² esa pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida davom ettirilmoqda. Mazkur huquqiy-me'yoriy asoslar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishida nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, ularni real ta'lim muhitida ishlashga, dars jarayonini loyihalashga, o'quvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishga tayyorlash zaruratini ko'rsatadi. Bu holat bo'lajak o'qituvchilarda nafaqat metodik bilimlarni egallash, balki kollaborativ o'quv vaziyatlarini loyihalash, o'quvchilar o'rtasida ijobiy o'zaro bog'liqlikni ta'minlash, umumiy mahsulot yaratishga yo'naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish va refleksiv baholashni tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Tadqiqotning maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarda kollaborativ o'qitish muhitini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti – oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayoni.

Tadqiqotning predmeti – bo'lajak o'qituvchilarda kollaborativ o'qitish muhitini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, pedagogik shart-sharoitlari, metodlari, vositalari.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kollaborativ o'qitish tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ba'zi tadqiqotlarda u guruhda ishlash, hamkorlikdagi faoliyat yoki kooperativ ta'lim bilan bir qatorda qo'llanadi. Biroq tizimli

¹ O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O'RQ-901-son "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni, 3-modda. LexUZ — "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonun

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-son Farmoni.

ilmiy-metodologik yondashuvlarda kollaborativ o'qitish oddiy kichik yoki o'rta guruhli ish emas, balki o'quvchilarning umumiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro intellektual, kommunikativ va ijtimoiy hamkorlikka kirishishi, bilimni birgalikda qurishi hamda natija uchun umumiy va individual javobgarlikni his qilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu qismda kollaborativ o'qitish muhitini yaratishning konseptual talqiniga doir tadqiqotlar va ularning tadqiqot mavzusi uchun ahamiyatli jihati yoritiladi.

Jumladan, olim Pierre Dillenbourg kollaborativ o'rganish tushunchasini yagona qat'iy ta'rif bilan cheklash qiyinligini ko'rsatadi. Uning yondashuvda kollaboratsiya o'quvchilarning bir xil vazifani birgalikda bajarishi emas, balki bilim, ma'no va muammo yechimlarini o'zaro muloqot jarayonida shakllantirish ekanligiga urg'u beradi¹. Uning ta'kidlashicha, kollaborativ o'qitish muhiti bo'lajak o'qituvchi tomonidan maxsus loyihalashtiriladigan pedagogik makon sifatida talqin qilinadi. Bu makonda o'quvchilar o'zaro fikr almashadi, rollarni bajaradi, muammoni birgalikda tahlil qiladi, bir-birining g'oyasini to'ldiradi, umumiy mahsulot yaratadi va o'z faoliyatini baholaydi. Bulardan anglashiladiki, kollaborativ muhitda bilim o'quvchilar o'rtasidagi muloqot, bahs, kelishuv, izlanish va refleksiya orqali shakllanadi, ya'ni tashqaridan berilayotgan tayyor axborot sifatida qabul qilinmaydi.

Tadqiqotchilar J.Roschelle va S.Teasley tomonidan ilgari surilgan "joint problem space" – umumiy muammo maydoni g'oyasi aynan shu jihatni: kollaborativ muammo yechishda ishtirokchilar umumiy tushuncha, maqsad, harakat va yechim makonini birgalikda qurishlarini asoslaydi².

Tahlil va talqin. Pedagogikada birgalikda o'qitish yondashuvlari so'nggi o'n yilliklarda keng tadqiq etilmoqda. Shu o'rinda tadqiqot doirasida ishlatiladigan va mazmun uzviyligiga ko'ra biri ikkinchisini to'ldiradigan, ba'zan esa ketma-ket yoki aralash qo'llangan ayrim tushunchalarga to'xtalib o'tishlik lozim ko'rildi. Xususan, kollaborativlik (kollaborativ o'rganish), kooperatsiya va guruhli ish tushunchalari o'zaro yaqin bo'lsa-da, pedagogik tadqiqotlarda ular bir xil mazmunni anglatmaydi.

¹ Dillenbourg P. (1999) What do you mean by collaborative learning? In P. Dillenbourg (Ed) Collaborative learning: Cognitive and Computational Approaches. (pp.1-19). Oxford: Elsevier.

² Roschelle, Jeremy & Teasley, Stephanie. (1995). The Construction of Shared Knowledge in Collaborative Problem Solving. Computer Supported Collaborative Learning. 10.1007/978-3-642-85098-1_5.

Quyida ushbu tushunchalar doirasida olib borilgan tadqiqotlar va ularga berilgan ta'riflarning qiyoсланma jadvalini yaratish orqali mazmunni aniqlashtirish mumkin (1-jadval):

Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqib, kollaborativ hamda kooperativ o'qitish tushunchalarini olim T.Panitz qarashlariga tayanib aniq chegaralarda ko'rsatish mumkin. Uning tajribalariga ko'ra, kollaborativ o'qitishda guruh a'zolari o'rtasida vakolat bo'lishiladi va har bir talaba guruh harakatlari uchun mas'uliyatni qabul qiladi. Kollaborativ o'qitishning asosiy g'oyasi raqobatga emas, balki guruh a'zolarining hamkorligi orqali konsensusga kelishga tayanadi. Kooperativ o'qitish kollaborativ boshqaruv tizimiga qaraganda ko'proq yo'naltiruvchi xarakterga ega va o'qituvchi tomonidan yaqindan nazorat qilinadi. Guruhiy tahlil va o'zini tahlil qilish mexanizmlari mavjud bo'lsa-da, asosiy yondashuvda o'qituvchi markazdaligicha qoladi, kollaborativ o'qitish esa ko'proq talaba markazda ekanligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, olim tadqiqotlarida K.A.Brufee, John Myers, C.M.Brody va N.Davidson kabi olimlarning ta'riflarini keltirib o'z qarashlarini yanada aniqlashtiradi. Iki marta quyaman quyaman

Myerga ko'ra, "collaboration" va "cooperation"ning lug'aviy ildizlarida ham mazmun farq qiladi. "Collaboration" so'zining lug'aviy ta'rif birgalikda ishlash jarayoniga urg'u beradi, "cooperation" so'zining ildizi esa bunday ishning mahsulotiga e'tiborni tortadi. Kooperativ o'qitish an'anasi ko'proq ta'lim natijasi, ya'ni o'zlashtirish mahsulotini o'lchaydigan miqdoriy metodlarga tayanadi. Kollaborativ an'ana esa o'quvchilarning adabiy matn yoki tarixiy manba yuzasidan muloqotini tahlil qiladigan sifat yondashuviga ko'proq yaqin turadi³.

Brufee ikki yondashuvni ma'lum darajada chiziqli jarayon sifatida ko'radi: kollaborativ o'qitish kooperativ o'qitish tugagan joydan davom etadi. Ya'ni o'quvchilar avval asosiy bilimlar va ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonlarini o'zlashtiradi, keyin esa kollaborativ faoliyat orqali tanqidiy fikrlash, muloqot yuritish va ijtimoiy muloqotni chuqurlashtirib, o'quv jarayonida ko'proq nazoratni o'z qo'lga oladi. Muallif bu o'tishni qat'iy chiziqli emas, balki o'qituvchi markazli, yaqin nazorat qilinadigan tizimdan o'qituvchi va talabalar vakolat hamda nazoratni

³ Panitz, T. (1999). Collaborative versus cooperative learning: A comparison of the two concepts which will help us understand the underlying nature of interactive learning (ERIC Document No. ED448443). - 5-b.

1-jadval. Guruhli ish, kollaborativ o'qitish va kooperativ o'qitish tushunchalar tasnifi.

Tushuncha	Muallif	Tavsif
Guruhli ish	E.G. Cohen, & R.A. Lotan (2014), Designing Groupwork ¹	Cohen/Lotanlarning tadqiqot yo'nalishi asosan guruhlarini sinfda samarali tashkil etish, geterogen guruhlar, status farqlari va guruh faoliyati dizayni bilan bog'liq. Ular o'z qarashlarida "guruhli ishni geterogen sinf sharoitida loyihalash strategiyalari nuqtayi nazaridan asoslaydi va o'quvchilarni kichik guruhga ajratib topshiriq bajarishga ko'proq urg'u berishadi.
Kooperativ o'qitish	D. W. Johnson, & R. T. Johnson (2009) [365-b.] ²	Mualliflar kooperativ o'qitishning (cooperative learning) muvaffaqiyati nazariya, tadqiqot va amaliyot munosabatiga tayanishini, uning poydevori esa ijtimoiy o'zaro bog'liqlik nazariyasi ekanini ko'rsatadilar. Bu tadqiqot ishi kooperativ o'qitish uchun asosiy nazariy tayanch sifatida xizmat qiladi.
Kooperativ o'qitish	R.M. Gillies (2016) [39-b.] ³	Gillies kooperativ o'qitishni o'quvchilarning umumiy maqsadga erishish yoki guruhli topshiriqlarni yakunlash, natija uchun birgalikdagi faoliyat sifatida izohlaydi, uning ta'kidlashicha, topshiriqlarni yakka holda bajarish o'quvchi uchun qiyin bo'lishi mumkin.
Kollaborativ o'qitish	P. Dillenbourg (1999) [1-5-b.] ⁴	P.Dillenbourg kollaborativ o'qitish(collaborative learning)ning juda keng, biroq yetarli darajada aniqlashtirilmagan ta'rifini beradi: ikki yoki undan ortiq kishi biror narsani birgalikda o'rganishi yoki o'rganishga urinishi. U bu tushunchani bitta metod ham, bitta mexanizm ham emas, balki ma'lum turdagi o'zaro ta'sir kutiladigan vaziyat sifatida sharhlaydi.
Kollaborativ o'qitishning kooperativdan farqi	J.Roschelle, & S.D. Teasley, (1995) [70-71-b.] ⁵	Mualliflar kollaborativlikni muammo haqidagi umumiy tasavvurni qurish va saqlashga qaratilgan muvofiqlashtirilgan, sinxron faoliyat sifatida ta'riflashadi. Kooperativlik(cooperative work)ni mehnat taqsimoti deb ta'riflashsa, kollaborativlikni esa muammoni birgalikda yechishga yo'naltirilgan o'zaro jalb etilgan jarayon sifatida farqlaydilar.
Kollaborativ o'qitishning kooperativdan farqi	T.Panitz (1999) [3-5-b.]	Kollaborativ o'qitish shunchaki sinf texnikasi emas, balki shaxsiy falsafadir. Odamlar guruh bo'lib birlashgan har qanday vaziyatda u guruh a'zolarining qobiliyati va hissasini hurmat qilish hamda ularni qadrlashga asoslangan munosabat usulini taklif etadi. Tadqiqotchi tomonidan kooperativ o'qitish shaxslarning bir paytda o'zaro ta'sirga kirishishi orqali aniq maqsadga erishish yoki odatda muayyan mazmunga bog'liq yakuniy mahsulot yaratishiga yordam beradigan jarayonlar majmui sifatida ta'riflanadi.

bo'lishadigan talaba markazli tizimga o'tuvchi uzluksizlik sifatida ko'rishni taklif qiladi.^{1 2 3 4 5}

T.Panitz Brody va Davidson tahlillari asosida ikki yondashuvda o'qituvchi o'ziga beradigan savollar ham farqlanishini ko'rsatadi. Kooperativ yondashuvdagi savollar mazmunida: o'qituvchi ko'proq "Ijtimoiy ko'nikmalarni qanday o'rgatamiz?",

¹ Cohen, E. G., & Lotan, R. A. (2014). Designing groupwork: Strategies for the heterogeneous classroom (3rd ed.). Teachers College Press.

² Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An educational psychology success story: Social interdependence theory and cooperative learning. Educational Researcher, 38(5), – P. 365–379.

³ Gillies, R. M. (2016). Cooperative learning: Review of research and practice. Australian Journal of Teacher Education, 41(3), 39–54.

⁴ Dillenbourg, P. (1999). What do you mean by collaborative learning? In P. Dillenbourg (Ed.), Collaborative-learning: Cognitive and computational approaches (pp. 1–19). Oxford: Elsevier.

⁵ Roschelle, J., & Teasley, S. D. (1995). The construction of shared knowledge in collaborative problem solving. In C. O'Malley (Ed.), Computer supported collaborative learning (pp. 69–97). Springer.

"Mas'uliyat va o'zaro hurmatni qanday rivojlantirib ramiz?", "Guruhdagi rollarni qanday o'rgatamiz?", "Kooperativ faoliyatni qanday tuzamiz?" kabi savollarni qo'yadi. Kollaborativ yondashuvdagi mazmunda esa o'qituvchi "Faoliyatning maqsadi nima?", "O'rganishda suhbatning ahamiyati qanday?", "Bolalarni avtonom o'rganuvchiga qanday aylantiramiz?", "O'quvchilar bilan mazmunli o'quv tajribasini qanday kelishib olamiz?", "Ta'limning ijtimoiy tabiatidan samarali kichik guruh muhitini yaratishda qanday foydalanamiz?" kabi savollarni belgilaydi⁶.

Guruhli ish – bu o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratib topshiriq bajarishga yo'naltirishning tashkiliy shakli. Biroq har qanday guruhli ish kollaborativ ta'lim bo'la olmaydi. Agar guruhda vazifa bir kishining zimmasiga tushib qolsa, boshqa a'zolar passiv kuzatuvchi bo'lib qolsa yoki umumiy muloqot yuzaki kechsa, bunday faoliyat kollaborativ mohiyat

⁶ Panitz, T. (1999). Collaborative versus cooperative learning: A comparison of the two concepts which will help us understand the underlying nature of interactive learning (ERIC Document No. ED448443). – 8-b.

kasb etmaydi. Kollaborativ ta'limda esa har bir ishtirokchi umumiy maqsadga erishishda zarur subyekt sifatida qatnashadi.

Kooperativ o'qitish odatda vazifalarni aniq bo'lib berish, rollarni taqsimlash, individual javobgarlik va umumiy natijaga erishish mexanizmlariga asoslanadi. Olimlar D.W.Johnson va R.T.Johnsonning ijtimoiy o'zaro bog'liqlik nazariyasida kooperativ ta'limning samaradorligi ijobiy o'zaro bog'liqlik, individual javobgarlik, rag'batlantiruvchi o'zaro ta'sir, ijtimoiy ko'nikmalar va guruh qayta ishlash kabi shartlar bilan izohlanadi. Ularning tadqiqotida kooperativ, raqobatli va individualistik faoliyat bo'yicha ko'p sonli ilmiy izlanishlar umumlashtirilgan va ijtimoiy o'zaro bog'liqlik nazariyasi hamkorlikdagi ta'lim amaliyotining asosiy poydevori sifatida ko'rsatilgan. Kollaborativ o'qitish esa kooperativ ta'limga nisbatan kengroq ma'noga ega bo'lib, unda bilimni birgalikda qurish, qarorlarni hamkorlikda ishlab chiqish, muammoni turli nuqtayi nazarlardan tahlil qilish va umumiy intellektual mahsulot yaratish ustuvor hisoblanadi¹.

Hamkorlikda o'qitish tushunchasi o'zbek pedagogik adabiyotlarida ko'pincha "obyekt-subyekt", "subyekt-subyekt", "o'qituvchi-o'quvchi", "o'quvchi-o'quvchi", "guruh-guruh" munosabatlarida o'zaro yordam, fikr almashish va birgalikda faoliyat yuritish sifatida talqin qilinadi². Kollaborativ o'qitish esa bu jarayonni yanada chuqurlashtirib, hamkorlikni o'quv muhitining asosiy loyihaviy prinsipi darajasiga olib chiqadi³. Boshqacha aytganda, hamkorlik faqat darsning bir epizodi emas, balki maqsad, mazmun, metod, vosita, muloqot, baholash va refleksiyaning ichki bog'lovchi mexanizmiga aylanadi. Ta'kidlab o'tish joizki, kollaboratsiya hamda kooperatsiya so'zlari (ingliz tilidan o'zbek tiliga "hamkorlik", deb tarjima qilinganligi sababli ham bo'lishi mumkin) asosan hamkorlik pedagogikasi⁴, hamkorlikda

o'qitish texnologiyasi⁵ va ayrim manbalarda ushbu so'zlarning aralash holda qo'llanganining⁶, alohida ajratib tahlil qilinmaganining⁷, xususan, kooperativ o'qitish texnologiyasi ko'proq tadqiq qilinganining guvohi bo'lish mumkin.

Kollaborativ o'qitish muhitining pedagogik vazifalari ko'p qirrali. Birinchidan, u o'quvchilarning bilish faolligini kuchaytiradi, chunki ular tayyor javobni qabul qilmaydi, balki yechimni birgalikda izlaydi. Ikkinchidan, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi, chunki o'quvchi fikrini tushunarli ifodalash, savol berish, muloqot madaniyatiga rioya qilish, dalillash va kelishish ko'nikmalarini amalda egallaydi. Uchinchidan, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiradi, chunki umumiy natija har bir a'zoning faol ishtirokiga bog'liq bo'ladi. To'rtinchidan, refleksiv fikrlashni rivojlantiradi, chunki o'quvchi nafaqat "nima o'rgandim?", balki "qanday o'rgandim?", "guruhga qanday hissa qo'shdim?", "keyingi safar nimani yaxshilashim kerak?" kabi savollarga javob izlaydi.

Natijalar.

Natijada bo'lajak o'qituvchilarda kollaborativlik ko'nikmasini rivojlantirish kollaborativ o'qitish muhitini loyihalashning tayanch sharti sifatida namoyon bo'ladi. Chunki bunday muhit o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi; u pedagog tomonidan maqsadli loyihalanadi, kommunikativ jihatdan boshqariladi, ishtirokchilararo munosabatlar orqali mustahkamlanadi va refleksiv baholash orqali takomillashtiriladi. Shu bois bo'lajak o'qituvchi kollaborativ faoliyatning oddiy ishtirokchisi emas, balki kelajakda o'quvchilari uchun ishonchli, muloqotga ochiq, bilimni birgalikda qurishga yo'naltirilgan va jamoaviy natijaga xizmat qiluvchi o'qitish muhitini yarata oladigan pedagogik subyekt sifatida tayyorlanishi lozim.

Tadqiqotchilar Kirschner, Strijbos, Kreijns va Beers tomonidan elektron kollaborativ o'quv muhitlarini loyihalash masalasi alohida tadqiq qilingan. Ularning yondashuvi kollaborativ muhitda

¹ Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An educational psychology success story: Social interdependence theory and cooperative learning. *Educational Researcher*, 38(5), 365–379.

² Abdullaeva O'.I. (2017). Hamkorlik pedagogikasi va uning vositasida ustoz-shogird an'alarini rivojlantirish. *Современное образование (Ўзбекистан)*, (4), 61–67.

³ Dilova N.G. (2021). O'qituvchi-o'quvchi hamkorligini vujudga keltirishning pedagogik ahamiyati. *Science and Education*, 2(10), 567–576.

⁴ Nurullayeva U.E. (2023). Hamkorlik pedagogikasi orqali tarbiya jarayoniga pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishning pedagogik asoslari. *Science and Education*, 4 (5), 1250–1254.

⁵ Rasulova Z.D. (2021). Hamkorlik texnologiyasiga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etish. *Scientific progress*, 2 (6), 964–971.

⁶ Bekbagambetova J.R. Kollaborativ kompetensiyaning tarkibiy-strukturaviy xususiyatlari va uning ta'lim jarayonidagi o'rni. / Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istibollari konferensiyasi. – Toshkent, 2026-yil fevral. – B. 17–20.

⁷ Istamova K.Q. Kollaborativ o'qitish texnologiyalari asosida talabalarning yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. "Science and Education" Scientific Journal. – 25 March 2026, Volume 7 Issue 3. – B 408–413.

texnologiya faqat aloqa vositasi emas, balki o'quv faoliyati, muloqot, resurs almashish, umumiy mahsulot yaratish va monitoringni tashkil etuvchi didaktik vosita ekanini ko'rsatadi. Bu qarash bugungi raqamli ta'lim sharoitida nihoyatda muhim: bo'lajak o'qituvchi LMS, Google Docs, Padlet, Miro, Wiki, forum, videokonferensiya kabi vositalarni shunchaki texnik platforma sifatida emas, balki pedagogik maqsadga xizmat qiladigan kollaborativ muhit elementlari sifatida tanlay olishi kerak.

Muhokama.

Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ muhitni loyihalash ko'nikmalari murakkab tarkibga ega.

Birinchi tarkibiy qism — diagnostik-tahliliy ko'nikmadir. Bu ko'nikma o'quvchilarning yoshi, bilish darajasi, kommunikativ tajribasi, guruhda ishlashga tayyorgarligi, psixologik xususiyatlari va o'quv ehtiyojlarini aniqlashni nazarda tutadi. Agar bo'lajak o'qituvchi guruh tarkibini, o'quvchilar o'rtasidagi munosabatni, yetakchilik va passivlik holatlarini, mavzu murakkabligini oldindan tahlil qilmasa, kollaborativ muhit yuzaki guruhii ishga aylanib qoladi.

Ikkinchi tarkibiy qism — maqsadli ko'nikmadir. Bo'lajak o'qituvchi kollaborativ faoliyatdan qanday natija kutilishini aniq belgilashi kerak. Bu natija faqat mavzuni o'zlashtirish emas, balki hamkorlikda fikrlash, dalillash, bahslashish, kelishish, umumiy mahsulot yaratish va refleksiya qilish ko'nikmalarini ham qamrab oladi. Masalan, dars maqsadi "o'quvchilar matn mazmunini tushunadi" shaklida emas, "o'quvchilar matnning g'oyaviy-tarbiyaviy mazmunini guruhda tahlil qiladi, dalillar asosida umumiy xulosa ishlab chiqadi va taqdimot orqali asoslaydi" tarzida belgilansa, kollaborativlik maqsadning o'zida aks etadi.

Uchinchi tarkibiy qism — mazmuniy ko'nikmadir. Kollaborativ muhit uchun tanlangan o'quv materiali muhokama, tahlil, qarama-qarshi fikrlar, muammo va umumlashtirish imkonini berishi zarur. Juda oddiy, faqat bitta javobga ega, mexanik eslab qolishga asoslangan topshiriqlar kollaborativ muhitni yuzaga chiqarmaydi. Bo'lajak o'qituvchi mazmunni muammoli, ochiq, izlanishga undovchi, ijtimoiy yoki hayotiy kontekstga ega shaklda tanlay olishi kerak. Ayniqsa, pedagogik ta'limda talabalarni kelajakdagi kasbiy vaziyatlar asosida ishlatish - dars loyihalash, sinfdagi konfliktni hal qilish, guruhii baholash mezonini tuzish, o'quv loyiha yaratish - kollaborativ muhitni kuchaytiradi.

To'rtinchi tarkibiy qism — texnologik ko'nikmadir. Bu ko'nikma darsning bosqichlarini, metodlarini, guruh tashkil etish shakllarini, rollar tizimini, vaqt taqsimotini, resurslarni va natija formatini oldindan loyihalashni o'z ichiga oladi. Masalan, "Jigsaw", "Think-Pair-Share", "Gallery Walk", "Peer Instruction", "Project Team", "Case Discussion", "Collaborative Writing" kabi metodlar kollaborativ muhitni yaratishda samarali bo'lishi mumkin. Biroq metodning o'zi emas, uning mavzu, maqsad va o'quvchi xususiyatiga mos loyihalaniishi muhimdir.

Beshinchi tarkibiy qism — kommunikativ ko'nikmadir. Bo'lajak o'qituvchi kollaborativ muhitda o'quvchilarning muloqotini boshqarishni bilishi kerak. Bu savol berish, fikrni aniqlashtirish, ziddiyatli qarashlarni konstruktiv muhokamaga aylantirish, passiv o'quvchilarni jalb qilish, faol o'quvchilarning ustunligini muvozanatlash, guruh ichida hurmat va eshitish madaniyatini shakllantirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Kollaborativ muhitda o'qituvchi har bir javobni o'zi baholovchi hakam emas, balki muloqotni chuqurlashtiruvchi moderator sifatida harakat qiladi.

Oltinchi tarkibiy qism — raqamli ko'nikmadir. Zamonaviy kollaborativ muhit ko'pincha raqamli vositalar bilan boyitiladi. Google Docs birgalikda matn yozish, Padlet g'oyalarni vizual jamlash, Miro konseptual xarita yaratish, Wiki umumiy bilim bazasi tuzish, LMS topshiriq va baholashni boshqarish, forum asinxron muhokama, videokonferensiya esa masofaviy hamkorlikni tashkil etish uchun xizmat qiladi. Biroq raqamli vosita tanlashda asosiy mezon uning modaga mosligi emas, balki pedagogik vazifaga mosligidir. Masalan, agar maqsad umumiy matn yaratish bo'lsa, Google Docs; g'oyalarni klasterlash bo'lsa, Miro yoki Padlet; izchil muhokama bo'lsa, forum; loyiha jarayonini nazorat qilish bo'lsa, LMS qulayroq bo'lishi mumkin.

Yettinchi tarkibiy qism — refleksiv-baholash ko'nikmasidir. Bo'lajak o'qituvchi kollaborativ faoliyat natijasini baholashda faqat yakuniy mahsulotga emas, balki jarayonga, o'zaro muloqotga, individual hissaga, guruhdagi mas'uliyatga va o'z-o'zini baholashga ham e'tibor qaratishi zarur. Buning uchun rubrika, chek-list, peer assessment, self-assessment, guruhii refleksiya savollari va portfoliodan foydalanish mumkin. Kollaborativ muhitda baholash "kim yaxshi javob berdi?" degan savol bilan cheklanmay, "guruh qanday ishladi?", "har bir a'zo qanday hissa qo'shdi?", "muloqot qanday kechdi?",

“natijani qanday takomillashtirish mumkin?” kabi savollarni ham qamrab oladi.

Sakkizinchi tarkibiy qism — qayta loyihalash ko'nikmasidir. Har qanday dars loyihasi amaliyotda sinovdan o'tadi va takomillashtirishni talab qiladi. Bo'lajak o'qituvchi kollaborativ muhitni loyihalagandan so'ng uning samaradorligini tahlil qilishi, qaysi guruhda muloqot sust bo'lganini, qaysi topshiriq yaxshi ishlaganini, vaqt taqsimoti qanday kechganini, baholash mezonini yetarli bo'lgan bo'lmaganini aniqlashi va keyingi darsda dizaynni qayta ko'rib chiqishi zarur. Bu jarayon redesign qayta loyihalash deb talqin qilinadi.

Xulosa.

1. Tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan kollaborativ o'qitish muhitini loyihalash ko'nikmalari - bu bo'lajak o'qituvchining o'quvchilarning hamkorlikdagi bilish faoliyatini maqsadli tashkil etish, o'quv vazifalarini o'zaro bog'liq tarzda ishlab chiqish, muloqot va rollar tizimini belgilash, raqamli va an'anaviy vositalarni tanlash, psixologik xavfsizlikni ta'minlash, individual hamda guruhij javobgarlikni

kni uyg'unlashtirish, natija va jarayonni baholash hamda refleksiya asosida muhitni qayta loyihalashga qaratilgan integrativ kasbiy-amaliy qobiliyatlarni majmuidir.

2. Xulosa qilib aytganda, kollaborativ o'qitish muhiti va uni loyihalash ko'nikmalarining pedagogik mohiyati bir necha ilmiy xulosalarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, kollaborativ o'qitish muhiti o'quvchilarning birgalikda bilim qurishi, ijtimoiy muloqotga kirishishi va umumiy mahsulot yaratishini ta'minlaydigan didaktik tizimdir. Ikkinchidan, bunday muhitni yaratish o'z-o'zidan yuz bermaydi; u o'qituvchining maqsadli pedagogik loyihalash faoliyatini talab qiladi. Uchinchidan, kollaborativ muhitda ijobiy o'zaro bog'liqlik, individual javobgarlik, muloqot, refleksiya, psixologik xavfsizlik va baholash mezonlari bir butun holda ishlashi zarur. To'rtinchidan, bo'lajak o'qituvchilarda bu ko'nikmalarni rivojlantirish pedagogik ta'limning zamonaviy talablariga mos keladi, chunki kelajak o'qituvchisi ta'lim jarayonini nafaqat o'rgatish, balki o'quvchilarning hamkorlikdagi o'rganishini loyihalash nuqtayi nazaridan tashkil etishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O'RQ-901-son "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni, 3-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-son Farmoni.
3. Abdullaeva O.I. Hamkorlik pedagogikasi va uning vositasida ustoz-shogird an'alarini rivojlantirish. // Современное образование (Узбекистан), 2017. 4-son, 61-67-bet.
4. Bekbagambetova J.R. Kollaborativ kompetensiyaning tarkibiy-strukturaviy xususiyatlari va uning ta'lim jarayonidagi o'rni. // Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istibollari konferensiyasi. – Toshkent, 2026-yil fevral. – B. 17-20.
5. Dilova, N. G. (2021). O'qituvchi-o'quvchi hamkorligini vujudga keltirishning pedagogik ahamiyati. // Science and Education, 2(10), 567-576.
6. Istamova K.Q. Kollaborativ o'qitish texnologiyalari asosida talabalarning yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. // "Science and Education" Scientific Journal. – 25 March 2026, Volume 7 Issue 3. – B 408-413.
7. Nurullayeva U.E. (2023). Hamkorlik pedagogikasi orqali tarbiya jarayoniga pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishning pedagogik asoslari. // Science and Education, 4 (5), 1250-1254.
8. Rasulova Z.D. (2021). Hamkorlik texnologiyasiga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etish. // Scientific progress, 2 (6), 964-971.
9. Cohen E.G., & Lotan R.A. (2014). Designing groupwork: Strategies for the heterogeneous classroom (3rd ed.). Teachers College Press.
10. Dillenbourg P. (1999) What do you mean by collaborative learning? In P. Dillenbourg (Ed) Collaborative-learning: Cognitive and Computational Approaches. (pp.1-19). Oxford: Elsevier.

11. Gillies R.M. (2016). Cooperative learning: Review of research and practice. // Australian Journal of Teacher Education, 41(3), 39–54.
12. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An educational psychology success story: Social interdependence theory and cooperative learning. // Educational Researcher, 38(5), – P. 365–379.
13. Panitz, T. (1999). Collaborative versus cooperative learning: A comparison of the two concepts which will help us understand the underlying nature of interactive learning (ERIC Document No. ED448443).
14. Roschelle, Jeremy & Teasley, Stephanie. (1995). The Construction of Shared Knowledge in Collaborative Problem Solving. Computer Supported Collaborative Learning. 10.1007/978-3-642-85098-1_5.